



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYAT TUSHUNCHASI

**Bozorova Gulshirin Rustam qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

**Niyozova Safiya Bo'kayevna**

*Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunimizda butun dunyo bo'ylab global muammoga aylangan ekologik inqiroz va ushbu holatga sabab bo'layotgan omillar biroz ochiqlab o'tilgan. Shuningdek, ekologik ta'limni boshlang'ich sinf o'quvchilariga to'laqonli yetkazish va "Yashil ta'lim" dasturini maktablarda yo'lga qo'yish haqida taklif berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich, ekologiya, ekologik madaniyat, o'quvchilar, ekologik ta'lim.

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri – bu atrof-muhitni asrash va tabiat bilan uyg'un hayot kechirish masalasidir. Global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havoning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi kabi muammolar har bir insondan mas'uliyatli yondashuvni talab etmoqda. Shu bois ekologik madaniyatni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonni erta yoshdan, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyat – bu insonning tabiatga ongli, ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatda bo'lishini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u bilim, ko'nikma, qadriyat va xulq-atvorning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga oid bilimlarni egallashni, balki kundalik hayotda tabiatga zarar yetkazmaslik, uni asrash va boyitishga qaratilgan odatlarni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Demak, ekologik madaniyat shaxsning umumiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari esa ekologik tarbiya uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda bolalarda tabiatga bo'lgan qiziqish, mehr-muhabbat va unga nisbatan dastlabki munosabatlar shakllanadi. Ular atrof-dagi olamni kuzatish, o'rganish va tushunishga intiladi. Agar shu davrda to'g'ri yo'naltirilgan ekologik tarbiya berilsa, bolalarda tabiatni sevis, uni asrashga intilish va ekologik mas'uliyat hissi mustahkam shakllanadi. Boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish turli fanlar va tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ona tili, o'qish, tabiatshunoslik, tasviriy san'at kabi fanlar orqali o'quvchilarga tabiatning go'zalligi, uning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida bilimlar beriladi.



Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlar, sayohatlar, tabiat qo'ynidagi kuzatuvlar va ekologik aksiyalar orqali bolalarning bilimlari mustahkamlanadi va ularning ekologik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat faqat maktab bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda oila va jamiyatning ham o'rni beqiyosdir. Ota-onalarning shaxsiy namunalari, uy sharoitida ekologik toza muhitni yaratish, resurslardan oqilona foydalanish kabi omillar bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik targ'ibot ishlarini kuchaytirish ham bugungi kun talabidir.

### **Materiallar va metodlar:**

tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Materiallar rivojlanishni baholash vositalari, ta'lim bo'yicha ko'rsatmalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatuv ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Usullar ota-onalar va o'qituvchilarning so'rovlari, erta yoshdagi mutaxassislar bilan suhbatlar va ta'lim muassasalariga o'tayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayoni kuzatuvlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish ekologik madaniyatni rivojlantirish strategiyalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish xususiyatlari aniqlashga qaratilgan.

### **Muhokama Va Natijalar:**

ekologik bilimlarning ilmiy asoslari nazariy, amaliy bilimlari va mustaqil ishlar jarayonida tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy e'tibor atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga katta ahamiyat beriladi.

Inson jamiyat tabiatning bir bo'lagi sifatida har doim ongli faoliyatni tashkil etib kelgan hoda, unga bo'lgan munosabatini ratsional yondashuv asosida amalga oshirgan. Shu nuqtai nazardan "ekologik madaniyat" tushunchasi muomalaga kiritilib, inson va tabiat munosabatlari inson omillari asosida qaror topgan. Bu esa o'quvchi ruhiyati, tabiat go'zalligi bilan hamohang barqarorlik kasb etishini allaqachon anglab etganligidan dalolat beradi. Ekologik madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri, tabiiy munosabatlarga inson aralashuvi salbiy oqibatlariga olib kelishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini yuzaga keltirgan.

Ekologik madaniyatni o'zlashtirgan o'quvchi o'z faoliyatini atrof-muhitni oqilona boshqarish talablariga bo'ysundiradi, atrof-muhitni yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, uning yo'q qilinishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaydi hamda atrof-muhitga inson tomonidan yetkaziladigan zararlarni kamaytirish borasida zaruriy ishlarni amalga oshiradi. Albatta bu jarayon inson



salomatligi va psixikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, boshqalarni ham bu borada sog'lom fikr yuritishga undaydi. Vazifalar: boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologiya, tabiiy resurslar, iqlim o'zgarishi va tabiatni asrab-avaylash kabi mavzularda bilim berish; tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish: O'quvchilarda ekologik mas'uliyat hissini rivojlantirish, ularni tabiatga va uning resurslariga ehtiyotkorlik bilan yondashishga o'rgatish; yashil madaniyatni rivojlantirish: O'quvchilarda qayta ishlash, chiqindilarni ajratish, suv va energiya resurslarini tejash kabi yashil texnologiyalarni joriy etish va ularga doir odatlarni shakllantirish; atrof-muhitni asrab-avaylash faoliyatlarini rag'batlantirish: O'quvchilarni ekologik loyihalar va tashabbuslarda ishtirok etishga, shuningdek, tabiatni asrab-avaylash uchun amaliy tadbirlarni o'tkazishga undash. Tadqiqot va kuzatish faoliyatlarini o'tkazish: O'quvchilarni tabiatda o'rganish va ekologik muammolarni tahlil qilishga jalb qilish, shuningdek, o'zlari kuzatgan ekologik holatlar haqida mulohaza yuritishga rag'batlantirish. Ekologik madaniyatni o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda rivojlantirish: O'quvchilarni ekologik madaniyatni nafaqat maktabda, balki oilada va jamiyatda ham qo'llab-quvvatlash va o'rgatish. Bu maqsadlar va vazifalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishga, ularni barqaror rivojlanishga o'rgatishga yordam beradi. Shuni alohida takidlashimiz joizki, bugungi kunga qadar atrof-muhitning insonga psixologik ta'siri juda kam miqdorda qaratilgan. Eng avvalo tabiiy muhitning o'zgarishi bevosita inson, uning psixologiyasi, xulq-atvori, xarakter xususiyati, tafakkur tarzi, yon atrofni idrok qilish, qolaversa fiziologiyasida ham o'zining ta'sirini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

O'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish-tabiatni, uni himoya qiladigan va yaratadigan insonlarga nisbatan ongli ravishda to'g'ri munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirilish maqsadga muvofiqdir. Tabiatning bir qismi sifatida o'ziga nisbatan munosabat, hayot va sog'liqning qadri hamda ularning atrof-muhit holatiga bog'liqligini anglash, tabiat bilan konstruktiv munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu jarayonni yanada mustahkamlash uchun yoshlarda mehnatga munosabatni ijobiy psixologik omillaridan maqsadli foydalanish zarur. Buning uchun eng avvalo, mehnat faoliyatini to'g'ri tizimlashtirish masalasiga e'tibor qaratgan holda yoshlarda mustaqil ravishda, ichki istak va xohish bilan hayvonlarni boqish, o'simliklarni parvarish qilish hamda ulardan estetik zavq olish kabi sifatlarni shakllantirish asosida hissiy va irodaviy fazilatlar yuksaltirish lozim. Bu o'z navbatida jamiyat yoshlaridagi ekologik mada niyatni yanada mustahkamlaydi, hamda ishonchni shakllantirishga olib keladi. O'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasining naqadar muhimligini e'tirof qilgan



holda ta'kidlash mumkinki, bunday davra suhbatlari, munozaralar oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televidenie orqali namoyish qilinishi va o'quvchilarning keng muhokamasiga qo'yilishi yaxshi natijalarni beradi. O'quvchilar mustaqil faoliyati davomida ko'pgina statistik ma'lumotlarni to'playdilar ya'ni ilmiy-ommabop adabiyotlar va ekologiyaga manbalarni umumlashtiradilar. Shu bilan birga, o'quvchilar dunyo miqyosida ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish maqsadida ko'plab ma'lumotlarni biladilar va ish tajribalarini qiyosiy tahlil qiladilar. Ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin.

Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun - qoidalari mavjudligini, tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqligini, umuman, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda, Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning, ma'naviy, madaniy, ekologik, ijtimoiy tarbiyaga oid meroslaridan kengroq foydalanishga imkoniyat yaratiladi.

Ta'limiy islohotlar ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, tadqiqotchilar va olimlarimiz uchun ulkan imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarga ekologik rivojlanish, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur fanni rivojlantirishning zaruriyatini, amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar, fan-texnika yutuqlarini, ekologik rivojlanishlar asosida tushuntirish muhimligini ko'rsatadi, chunki o'quvchilar bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni obyektiv baholashi, mustaqillik sharoitida ekologik tarbiya bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni yechimini topish masalalarining zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglab yetishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan oladigan bilsak ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini asosli va aniq tarzda o'quvchilarga yoritib berilishi ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning bugungi kundagi ijobiy natijalari va ularning ahamiyati, ijtimoiy-ekologik rivojlanishlar bo'yicha ijobiy tasavvurlar shakllantirish bilan bir qatorda, o'quvchilarda e'tiqod va sadoqat, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlarga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik va kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantiradi. Boshlang'ich



sinflarda ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelganligi, O'zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir. Shuni alohida takidlashimiz joizki, "tabiat-inson" va "insoniyat-ekologiya" muammosini o'rganadigan fanlar tizimida psixologiya va pedagogika alohida o'rin tutadi. Bu borada shaxsning ekologik ongi va ekologik ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirishning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish muhim masalalardandir. Ushbu konsepsiya asosida shaxsda hissiy bilish, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish, faollikni maqsadga yo'naltirilganligi, insoniy tamoyillarga sodiqlik, ijtimoiylashuvning yuzaga kelishi ya'ni faoliyat turi bilan almashtirilishi kabi ustuvor parametrlarni qaror toptirish lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida atrof-muhit va o'quvchi shaxsini qaror toptirishning madaniy va sinergetik yondashuvlari, tabiatga muvofiqlik tamoyillaridan tashkil topgan ekologik madaniyatning falsafiy-madaniy, psixologik-pedagogik asoslarini aniqlash va bu borada nostandart takliflarni berish o'quvchilarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish hamda ekologik tarbiyaning zamonaviy kompleks metodologiyasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Tabiatning va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab etgan holda o'z mustaqil kasbiy faoliyatini tashkil etish, inson faoliyati ta'sirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olish, texnik vositalardan oqilona va ratsional foydalanish, ekologiksiyosat, tabiiy olam komponentlari, tabiiy va antropogen obyektlar, tabiiy kompleks, tabiiy ekologik tizim va ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhit va insonga ko'rsatilgan ekologik zararni belgilash va hisoblash, ekologik madaniyatni ta'minlovchi innovatsion holatlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka, axloq va tafakkurga ega bo'lishlari taqozo etiladi.

**Xulosa:** boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining asosiy xususiyati -o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Shuningdek, o'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ekologik madaniyat tushunchasi boyib boradi. Buning uchun esa ekologik ta'limning mukammal tizimini ishlab chiqish va ta'lim tizimiga joriy etish darkor. Ekologik ta'lim - tarbiya qanchalik erta berila boshlasa shunchalik ijobiy samarali bo'ladi. Oila, ta'lim muassasalari va boshqa



sohalarda ekologik tafakkur, ekologik ong va ekologik madaniyat uzluksiz tarzda shakllantirilib borilishi zarur. Buning uchun har bir o'qituvchi eng avvalo, ekologik ong, ekologik tarbiya va ekologik madaniyat tushunchalarini o'quvchi yoshlarga singdira olishi lozim.

Bu munosabatlar mohiyatini kichik yoshdagi o'quvchilar ongiga etkaza olish, ularning tabiyatga bo'lgan munosabatini to'g'ri ravishda amalga oshira bilishga o'rgatish ekologik ta'limning asosiy negizini tashkil qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Iskandarova D., "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish mazmuni", "Scientific Progress" ilmiy-metodik jurnali;
2. Karamatova D., "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishdagi muammo va yechimlari", "Journal of new century innovations"
3. Nuriddinova, "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" -Cho'lpon nashriyoti;
4. Shermatova U., "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish xususiyatlari", "INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY"